

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

BOSHLANG`ICH TA`LIM METODIKASI KAFEDRASI

Boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ish yo`nalishi, 1-kurs talabalari uchun

**«HOZIRGI ZAMON O`ZBEK TILI»  
fanidan**

**AMALIY MASHG`ULOT ISHLANMASI**



**O`qituvchi:**

**M.Rahimova**

**Namangan**

Hozirgi zamon o'zbek tili fani bo'yicha ishlab chiqilgan amaliy mashg'ulot ishlanma O'zbekiston uzluksiz ta'limining Davlat ta'lim standartlari, Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti 5141600 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar asosida tayyorlangan. Ushbu amaliy mashg'ulot ishlanmadan universitet pedagogika va jismoniy madaniyat fakul'teti talabalariga manba sifatida tavsiya etiladi. Shuningdek, pedagogika kollejlarning boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma sifatida mo'ljallangan.

## МУСТАҚИЛ СЎЗ ТУРКУМЛАРИ. ОТ

### Режа:

1. Отларнинг лексик–грамматик хусусиятлари
2. Турдош отлар ва уларнинг турлари
3. Атоқли отлар ва уларнинг турлари
4. Отларнинг луғавий шакллари
5. Отларнинг бирлик ва кўпликда қўлланиши (сон категорияси)
6. Отларнинг кичрайтириш, ҳурматлаш, эркалаш ва қиёслаш шакллари

### 1-§. Отларнинг лексик–грамматик хусусиятлари

Нарса-буюм, шахсларни ёки жой номларини билдирадиган сўзлар туркуми **от** деб аталади. От *ким? нима? қаер?* сўроқларига жавоб бўлади.

Отларнинг лексик (маъновий) хусусиятлари: 1) отлар шахс, нарса ёки жой номини билдиради: *одам, китоб, шаҳар*; 2) отлар маъно жиҳатидан шахс отлари, нарса-буюм отлари ва жой номини билдирувчи отларга бўлинади;

Отларнинг грамматик хусусиятлари: 1) морфологик хусусиятлари: а) отлар келишик қўшимчалари билан қўлланади, бирлик ва кўplik сонда ишлатилади (келишик ва сон шакли уларнинг доимий хусусиятидир), эгалик қўшимчаларини олади (бу доимий хусусият эмас). б) отлар сифат ўрнида қўлланиши мумкин: *асфальт йўл, тилла билагузук, темир сандиқ*. 2) синтактик хусусиятлари: а) отлар гапда бош бўлак, иккинчи даражали бўлак, шунингдек, ундалма бўлиб келади: *Онам паррандачилик фермасида ишлайди. Билим манбаи китобдир. Мактабда илмининг пойдевориغا асос солинади. Бугунги ишнини эртага қўйма! Болалар, кўча ҳаракати қондаларига риоя қилинг!* б) отлар якка гап вазифасини ҳам бажариши мумкин: *Кўз. Йигим-терим авжига чиққан.*

### 2 -§. Турдош отлар ва уларнинг турлари

Отлар маъно жиҳатидан **турдош** ва **атокли** отларга бўлинади. Бир турдаги предметларнинг умумий номини билдирган отлар **турдош от** дейилади: *шаҳар, одам, мактаб*.

1. Турдош отлар қандай тушунчани ифодалашига кўра 2 хил:

**1) аниқ отлар** бешта сезги (қўриш, эшитиш, ҳид билиш, таъм билиш, тери орқали сезиш) ёрдамида сезиш мумкин бўлган предметларни ифодалайди ва шахс отлари, қавм-қариндошлик отлари, касб-корига кўра шахс отлари, ҳайвонот отлари, дарахт ва ўсимлик отлари, нарса-буюм отлари, моддаларни ифодаловчи отлар, ўрин-жой отлари, пайт отлари каби гуруҳларга бўлинади: *китоб, товуш, ҳаво, шаҳар, дақиқа*.

2) **мавхум отлар** онг ёрдамидагина идрок қилинадиган нарсаларни ифодалайди ва белгиланган хусусият отлари, муносабат ифодаловчи, ҳаракат-ҳолат отлари, воқеа-ҳодиса отлари, касб-кор, фаолият ифодаловчи отлар каби гуруҳларга бўлинади: *гўзаллик, душманлик, газаб, камчилик, дўстлик, маданият*.

2. Турдош отлар бирлик шаклда кўплик маъносини ифодалаш-ифодаласлигига кўра 2 хил бўлади:

1) **якка отлар** бирлик шаклда якка предметларни ифодалайди: *одам, кўча, дарахт*;

2) **жамловчи отлар** бирлик шаклда ҳам кўпликни ифодалайди: *карвон, халқ, гуруҳ*.

Булардан ташқари, турдош отлар яна қуйидаги турларга бўлинади:

1. **Шахс отлари** шахсларни касб-корига, ёшига, яшаш жойига, жамиятда тутган ўрнига, қариндошлигига, мансаб-лавозимига кўра номлайдиган отлардир: *темирчи, шаҳарлик, раис, амаки*. Бундай отлар **ким** сўроғига жавоб бўлади.

2. **Нарса отлари** жонли ва жонсиз нарсаларнинг номини ифодалайдиган отлардир: *китоб, дафтар*. Бундай отлар **нима?** сўроғига жавоб бўлади.

3. **Ўрин-жой отлари қаер?** сўроғига жавоб бўлади: *шаҳар, гузар, маҳалла, туман, вилоят, кўча, гулзор, ўйингоҳ, шимол, жануб*. Бундай отлар нарсалик маъносини ҳам билдиргани учун баъзан **нима?** сўроғига жавоб бўлиши ҳам мумкин.

4. **Фаолият-жараён номини билдирувчи отлар** шахс ва нарсаларнинг фаолиятини билдирадиган отлардир: *чорвачилик, танлов, терим*.

### 3-§. Атоқли отлар ва уларнинг турлари

Айрим шахс ёки предметга атаб қўйилган номлар **атоқли отлар** дейилади, улар қуйидаги гуруҳларга бўлинади: 1) кишиларнинг исми, фамилияси, тахаллуси: *Раҳим Маҳмудов, Ойбек*; 2) ҳайвонларга атаб қўйилган номлар: *Олапар, Тўрткўз, Тарғил, Бойчибор, Раҳи, Ғиркўк*; 3) географик номлар (буларга оддий кўча номларидан тортиб китъа номларигача барчаси қиради): *Навоий кўчаси, Тошкент шаҳри, Помир тоғи, Осиё қитъаси*; 4) ташкилот, муассаса ва идора номлари: *Ўзбекистон Республикаси Марказий банки, Низомий номли ТДПУ*,

5) китоб, газета, журнал, кинофильм, спектакль номлари: *“Ўтган кунлар” романи, “Маърифат” газетаси*; 6) сув ҳавзалари ва иншоотлар номлари: *Амударё, Орол денгизи, Катта Фарғона канали*; 7) тарихий воқеалар, байрам номлари: *Мустақиллик куни, Наврўз байрами*. 8) астрономик номлар, яъни планета, метеорит, астероид номлари: *Юпитер, Сатурн, Сомон йўли*. Атоқли отлар китоб, газета, журнал, кинофильм, ташкилотларга атаб қўйилган бўлса, ёзувда кўштирноққа олинади, аммо шаҳар, кинотеатр, ташкилотлар киши номларига қўйилган бўлса, кўштирноққа олинмасдан, *номидаги, номли* сўзлари ишлатилади. Кўпчилик атоқли отлар турдош от ёки бошқа бирон сўз туркуми асосида вужудга келади: *Пўлат* (турдош отдан), *Гўзал* (сифатдан), *Саксон ота* (сондан), *Кимсан* (олмошдан), *Сотиболди* (февълдан), *Кўпайсин* (равийшдан ясалган февълдан). Баъзан атоқли отлар турдош отга айланиши ҳам мумкин: *ампер (ток ўлчови), хосиятхон (атлас тури), макинтош (кийим тури)*.

### 4-§. Отларнинг луғавий шакллари

Отларнинг исмлар гуруҳига кириши ҳақида юқорида (44-бет) сўз юритилди. Исмларнинг кўплик, кичрайтириш-эркаланиш, қиёслаш маъноларини ифодалайдиган шакллари **луғавий шакл** деб юритилади. Шулардан бирлик-кўплик шакли билан танишамиз.

### 5-§. Отларнинг бирлик ва кўпликда қўлланиши (сон категорияси)

Отлар бирлик ва кўплик сонда келади. Бирлик сондаги отлар бир предметни билдиради. Кўплик сондаги отлар бирдан ортиқ предметни билдиради. Отлар кўпликда **-лар** қўшимчаси

орқали ифодаланса, **морфологик үсүл** ҳисобланади: *болалар, уйлар*. Кўплик маъноси кўшимчасиз ҳолда махсус сўзлар ёрдамида ифодаланса, **лексик үсүл** ҳисобланади: *бир қанча одам, минг-минг дарахт, бешта дафтар*. Баъзан бу усуллар аралаш ифодаланиши мумкин (**лексик-морфологик үсүл**): *Кўп ота-оналар келишиди*.

Ҳаракат-ҳолат, белги номини билдирган отлар, доналаб саналмайдиган нарса ва жисм номлари, жуфт предметларни билдирувчи отлар ва атоқли отлар фақат бирликда қўлланади: *дўстлик, ун, кўз, Муаттар* ва ҳ.

-лар кўшимчаси кўплик маъносидан ташқари қуйидаги маъноларни ифодалайди: 1) нарсаларнинг турини, навини хилини: *Дўконга ёғлар (гуручлар, сувлар ва ҳ.) келтирилди*; 2) жамликни: *Маъмураҳонлар келишиди*; 3) ҳурматни: *Дадамлар ишлайдилар*; 4) кинояни: *Жаноблари келибдилар-да*; 5) кучайтиришни: *Боиларим оғриб кетди*; 6) тахминни: *Соат бешларда келади*.

-лар кўрсаткичи отлардан ташқари олмош, сон, сифат, феъл, равиш туркумидаги сўзларга ҳам қўшилиши мумкин: *булар, кимлар, бизлар, тушунтиришлар, катталарни, бешлар, илгарилари, келганлар* каби. Бу кўрсаткич феълга қўшилганда тусловчи таркибида келади: *борадилар* (3-шахс тусловчи таркибида).

## 6-§. Отларнинг кичрайтириш, ҳурматлаш, эркалаш ва қиёслаш шакллари

Нутқимизда кичрайтириш, ҳурматлаш ва эркалаш отлари ҳам қўлланади. Бундай отлар кичрайтириш, баъзан эса ҳам кичрайтириш, ҳам эркалаш маъноларини англатадиган қуйидаги кўшимчалар билан ясалади:

-ча:	<i>Акбарча (кесатиш маъносида), уйча, рўмолча, китобча</i>
-чоқ, -чак, -чиқ:	<i>қўзичоқ, келинчак, қопчиқ</i>
-(а)лоқ:	<i>қизалоқ, бўталоқ</i>
-жон:	<i>укажон, Раҳимжон</i>
-хон:	<i>Одилхон, Салимахон</i>
-ой:	<i>Қундузой, Турсуной</i>
-бегим:	<i>Нодирабегим</i>
-ниса:	<i>Зебунниса</i>
-биби:	<i>Ойшабиби</i>
-бек:	<i>Отабек</i>
-хўжа:	<i>Акбархўжа</i>
-гина:	<i>ёлғизгинам, болагинаси</i>
-дай(-дек):	<i>ойдай, шамолдек</i>

**Д и к қ а т!** –гина кўшимчаси кичрайтириш, эркалашдан ташқари, ачиниш маъносини ҳам ифодалайди. Бу кўшимча –гина айирув юкламаси билан омонимдир. Фарқлари: -гина юкламаси барча кўшимчалардан кейин қўшилади; -гина юкламаси урғу олмайди, -гина кўшимчаси эса урғу олиши мумкин.

<b>8. MAVZU</b>	<b>So'z turkumlari. Ot uning ma'no turlari, grammatik kategoriyalari, yasalishi.</b>	
Vahti: 2 soat	Talabalar soni: 17 ta	
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashg'uloti	
Amaliy mashg'uloti rejasi	1.Tashkiliy qism; 2.Savol-javob; 3.Mashq ishlash; 4.Test tekshiruvi 5. Talabalar faoliyatini baholash 6. Mashg'ulotni yakunlash.	
O'quv mashg'ulotning maqsadi	So'z turkumlari, ularning tasnifi mavzusii yuzasidan o'rgangan nazariy bilimlarni amalda tadbiq etishga o'rgatish.	
O'qituvchining vazifasi: 1. So'z turkumlari, ularning tasnifi yuzasidan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va talabalarga berish. 2. So'z turkumlari, ularning tasnifi yuzasidan adabiyotlar ro'yxatini tuzish. 3.Darsda foydalanish uchun darslikka qo'shimcha test, diktant, krossvord, ta'limiy o'yinlar, ko'rgazmali qurollar ishlab chiqish bo'yicha maslahatlar mazmunini ishlab chiqish. 4.«So'z turkumlari, ularning tasnifi» mavzusi yuzasidan mashq va test bajarishga tayyorlash.	O'quv faoliyatining natijasi 1. O'qituvchining barcha topshiriqlarini bajarib kelishi. 2. Amaliy mashg'ulotda faol ishtirok etish. 3. Qo'shimcha test, diktant, krossvord, ta'limiy o'yinlar, ko'rgazmali qurollar ishlab chiqish 4. «So'z turkumlari, ularning tasnifi» yuzasidan savollarga javob berish, mashqlar va testlar ishlash	
Ta'lim metodi va texnikasi	Suhbat,muammoli izlanish, mustaqil ish metodi.Kompyuter texnologiyasidan foydalanish: slaydlar	
Ta'lim vositasi	Proyektor	
Ta'lim shakli	Yakka tartibdagi savol-javob, kichik guruhlarda ishlash	
TTa'lim sharti	Auditoriya, TSOdan foydalanish	

### Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
<b>Tayyorgarlik bosqichi</b>	1.1. Amaliy mashg'ulot mavzusini (So'z turkumlari, ularning tasnifi yuzasidan savol-javob o'tkazish, mashqlar va testlar ishlash) e'lon qilish. 1.2. Amaliy mashg'ulot maqsadi va rejasini e'lon qilish. <b>(ilova-1)</b>	1.1. Diqqat bilan tinglaydilar. yozib oladilar. 1.1. Eshitadi va yozib oladilar.
<b>1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat</b>	Metod. Aqiliy hujum, suhbat. 1.1. Talabalarning nazariy bilimlarini aniqlash.	1.1.Muhokama uchun savol-topshiriqlarga talabalar javob beradilar.

<b>bosqichi)</b> <b>(20 daqiqa)</b>		
<b>2-bosqich.</b> <b>Asosiy</b> <b>(Anglash</b> <b>bosqichi)</b> <b>(50 daqiqa)</b>	1 Amaliy: 30 daqiqa 2.1. Ma’ruzada o’rganilgan nazariy bilimlarini savol – javob asosida aniqlash. 2.2. So’z turkumlari, ularning tasnifi» mavzusi yuzasidan mashqlar bajarish. 2.3. Testlar ishlash. 2.4. Mashg’ulotni xulosalash va talabalar bilimini baholash. Uning mahokamasi: 15 daqiqa Taqdimot: 5 daqiqa	2.1. Savol–javobda ishtirok etadi. 2.2. So’z turkumlari, ularning tasnifi» mavzusi yuzasidan mashqlar bajaradi. 2.3. Testlarni bajaradi. 2.4. Muhokamada ishtirok etadi.
<b>3-bosqich.</b> <b>Yakuniy</b> <b>(Fikrlash</b> <b>bosqichi)</b> <b>(10 daqiqa)</b>	3.1. So’z turkumlari, ularning tasnifi yuzasidan mashqlarni namoyish qilish. 2. So’z turkumlari, ularning tasnifi yuzasidan mashqlardan misollar ko’rsatish. 3.3. Blits texnologiyasi asosida mavzu yuzasidan talabalar bilimini aniqlash	3.1. So’z turkumlari, ularning tasnifi yuzasidan mashqlarni bajarishadi. 3.2. So’z turkumlari, ularning tasnifi yuzasidan misollar topish. 3.3. Blits texnologiyasini bajarish.

#### ilova-1

**Maqsad:** So’z turkumlari, ularning tasnifi mavzusi yuzasidan o’rganilgan nazariy bilimlarni amalda tadbiq etishga o’rgatish .

#### **Mashg’ulot rejasi:**

1. Tashkiliy qism;
2. Savol-javob;
3. Mashq ishlash;
4. Mutaqil ishlarni tekshirish;
7. Test tekshiruvi
8. Talabalar faoliyatini baholas
9. Mashg’ulotni yakunlash

#### **Mashg’uloti mazmuni**

1. Guruh uchta kichik guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh o’ziga nom qo’yadi va qo’ygan nomini izohlaydi.
2. Guruhlarga konvertda topshiriqlar beriladi.
  - 1-guruh uchun. So’z turkumlari deganda nimani tushunasiz q
  - 2-guruh uchun. q Yordamchi , mustaqil so’zlarning turlari ochib bering
  - 3-guruh uchun. So’z turkumlarini “Tarmoqlash“ usulida ochib bering.
3. Guruhlar javobi umumlashtirilib, slaydlar asosida to’ldiriladi.  
So’z turkumlari quyidagi guruhlariga bo’linadi

#### TEST TOPSHIRIQLARI

##### **1-guruh uchun**

A..Alohida olingan guruh so’zlar	1. Qanday so’zlar lug’aviy ma’no bildirmaydi
B. Ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ravish kiradi	2. Mustaqil so’z turkumlari to’g’ri berilgan qatorni toping.
D. Ko’makchi, bog’lovchi, yuklama kiradi	3. Yordamchi so’zlar to’g’ri berilgan qatorni toping.
S. Mustaqil so’z turkumlari	Qanday so’zlar lug’aviy ma’no bildiradi

##### **2-guruh uchun**

B. Modal so'zlar, undov so'zlar, taqlid so'zlar	1Alohida olingan guruh so'zlar to'g'ri berilgan qatorni toping.
B Yordamchi so'zlar	2Qanday so'zlar yakka holda ma'no anglatmaydi, gap bo'lagi bo'la olmaydi, grammatik ma'nolarni ifodalashgagina xizmat qiladiq
C.Mustaqil so'z turkumlari	3.Qanday so'zl turkumlari gap ichida ma'lum bir gap bo'lagi bo'lib keladi.

5 Talabalarning yangi mavzuni tushuntirish (So'z turkumlari, ularning tasnifi ) misollarni amaliy ko'rsatishi. Shu o'rinda talabalar badiiy asardan tuzib kelgan misollardan namunalar o'qitiladi.)

Mustaqil so'z turkumlari mustahkamlashda qo'llanadigan mashqlardan namunalar ko'rsatishi.  
134-135 mashqlar

№	Savollar	Sizning harakatingiz
	Qaysi qatordagi so'zlar faqat ot turkumiga mansubq	1) kelma, o'qima, tugma 2) gazlama, childirma, ko'rsatma* 3) yasama, qaynatma, to'qima 4) yigirma, sekinlama, surma
	Ot qaysi so'z turkumlaridagi so'zlar bilan birika olmaydiq	1) ot, sifat 2) olmosh 3) ravish, fe'l 4) ot mustaqil so'z turkumlarining barchasi bilan birika oladi*
	O'rin-joy otlarini topingq	1) qo'lyozma,qotishma, qurilma 2) yozishma,eslatma, birikma 3) qovurma, cho'zma, suzma 4)bostirma, tortma, pistirma*
	Mavhum otlar qatorini topingq	1) uyqu, jahl* 2) soch, kiprik 3)quyosh, tutun 4)gul, orzu
	Turdosh otdan yasalgan atoqli otlar qatorini aniqlangq	1) Olmos,Yashin, Sulton, Juma* 2) Shirin, O'tkir, Majnun, Aziz 3)To'xta, Turdi, Tursun, Berdi 4)rentgen, boston, xosiyatxon, amper
	Qaysi qatorda mavhum otlar o'zaro sinonim bo'lib kelganq	1)kuch- qudrat 2) odam -inson* 3) quyosh –oftob 4) do'stim- o'rtog'im

ilova - 4

### Bilimlarni tekshirish uchun test topshiriqlar

#### 1. Qaysi qatorda faqat otlar berilganq

- uchirma, suzma, bog'lama \*
- yasama, qaynatma, to'qima
- ko'rsatma, jamg'arma,birikma
- yigirma, gazlama,surma

#### 2.Turdosh otlardan hosil bo'lgan atoqli otlarni belgilang

- rentgen, xosiyatxon
- Nodir, Aziz
- Ulug', Tuyg'un

d) Asal, Lola\*

**3. Faqat mavhum otlar qatorini toping**

- A. bola, daftar, qishloq
- B. gul, zafar, qishloq
- C. shodlik, sevgi, kulfat
- D. yo'l, daraxt, vodiy
- E. asal, asar, bog'

**4. Mavhum otlar qatorini toping**

- A. qayg'u, jahl
- B. soch, kiprik
- C. quyosh, tutun
- D. gul, orzu
- E. yahshilik avtomobil

**5. O'zbek tilida otning qaysi shakli sintaktik munosabat ko'rsatmaydiq**

- A. kelishik shakli
- B. egalik shakli
- C. birlik va ko'plik
- D. egalik, birlik va ko'plik shakllari
- E. otga xos bo'lgan uchala grammatik shakl ham sintaktik munosabatni ko'rsatadi

**6. Qaysi qatorda faqat otlar berilganq**

- A. uchun, to'lqin, bilimdon, qalamdon
- B. yong'in, toshqin, tuzdon, kuldon
- C. tuyg'un, keskin, qumdon, xumdon
- E. ozg'in, yorqin, gapdon, qadrdon

**7. Ot qaysi so'z turkumidagi so'zlar bilan birika olmaydiq**

- A. ot, sifat
- B. olmosh
- C. ravish, fe'l
- D. ot mustaqil so'z turkumlarining barchasi bilan birika oladi
- E. son

**8. Atoqli ot asosida paydo bo'lgan turdosh otlar qatorini toping**

- A. asal, rayhon, arslon, muhabbat
- B. anor, lola, shirin, to'qson
- C. yetmish, bultur, turdi, ra'no
- D. roentgen, xosiyatxon, michurinchilar, amper
- E. A,B

**9. Faqat turdosh otlar asosida paydo bo'lgan atoqli otlar qatorini toping**

- A. Ergash, Lobar, Gulchehra, To'xtamurod
- B. Juma, Bahri, Rayhon, Nilufar
- C. Ulug', Suluv, Dilbar, Go'zal
- D. Ortiq, Quvonch, Hursand, Vali
- E. A,D